



Soliq islohotlarining mamlakat rivoji uchun ahamiyati

Ro‘ziqulova NIlufar

Samarqand Iqtisodiyot va Servis talabasi

Rafiyeva Zarina

Samarqand Iqtisodiyot va Servis o’qituvchisi

Azimov Sindor Rustam o’g’li

Samarqand Iqtisodiyot va Servis talabasi

Annotatsiya: Maqolada soliq tizimining kelib chiqishi va uni rivojlanish tarixi haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, mamlakatda olib borilayotgan soliq islohotlari va uni yuritish yo’li haqida aytib o’tilgan. Qolaversa, Yevropa mamlakatlari va O’zbekiston soliq sistemasi haqida bir necha farqlar va o’zgarishlar ham yoritilib o’tilgan.

Kalit so’zlar: soliq, islohot, qonun, mablag’, kodeks, daromad, tizim, fiscal vazifa, ijtimoiy vazifa, tartibga solish vazifasi, huquqiy asoslar, hisob-kitob tizimi, to’lov tizimi, soliq darajalari

Abstract: The article talks about the origin of the tax system and the history of its development. It was also mentioned about the tax reforms being carried out in the country and the way of its implementation. In addition, several differences and changes about the tax system of European countries and Uzbekistan are also highlighted.

Key words: tax, reform, law, fund, code, income, system, fiscal task, social task, regulatory task, legal basis, calculation system, payment system, tax levels

Аннотация: В статье говорится о зарождении налоговой системы и истории ее развития. Также было упомянуто о проводимых в стране налоговых реформах и путях их реализации. Кроме того, также выделены некоторые различия и изменения в налоговой системе европейских стран и Узбекистана.

Ключевые слова: налог, реформа, закон, фонд, кодекс, доход, система, фискальная задача, социальная задача, нормативная задача, правовая основа, система расчета, платежная система, уровни налогов.

Soliqning kelib chiqishi davlatning paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, juda qadimiy tarixga ega. Tarixiy manbalarda bundan 3760-yil muqaddam Bobil davlatida Hammurapi qonunlari bilan soliqning joriy etilgani to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. Hozirgi davrda ham davlat bajaradigan vazifalarni mablag’ bilan ta’minlash muammosi soliqning obyektiv zarurligini keltirib chiqaradi.

O’zbekiston Respublikasida Soliq tizimining huquqiy asoslari, uni to‘lovchilarining huquqlari hamda majburiyatları, soliq ishlarini yuritish tartiboti 1997-yil 24 aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi. O’zbekiston Respublikasida joriy etilgan umum davlat Soliqi: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) soligi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi; qo’shilgan qiymat solig‘i; aksiz solig‘i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig‘i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Umum davlat Soliq‘i har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi. Mahalliy Soliq va yig‘imlar — mol-mulk soliq; yer solig‘i; reklama solig‘i; avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi, savdosotiq huquqi uchun yig‘im; obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqa Mahalliy soliq va yig‘imlar mahalliy byudjetga o’tkaziladi.



Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

1. davlat xaratjalarni moliyalashtirish (**fiskal vazifikasi**);
2. ijtimoiy tanglikni yumshatish (**ijtimoiy vazifikasi**);
3. iqtisodiyotni tartibga solish (**tartibga solish vazifikasi**).

O'zbekiston soliq tizimi va Yevropa soliq tizimlari o'rtacha amal qiladigan asosiy qonuniy va tartibiy farqlar mavjud.

1. Huquqiy asoslar: Yevropa soliq tizimlari odatda qonunlar va hujjatlarga asoslangan, qonuniy tartibot asosida boshqariladi. O'zbekiston soliq tizimi ham shuningdek qonunlar asosida boshqariladi, lekin uning tartiboti o'rtacha yuridik jarayonlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Soliq turi va darajalari: Soliq turlari va soliq darajalari Yevropa mamlakatlarida odatda mustaqil qonunlar bilan aniqlanadi va amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham soliq turlari va darajalari mavjud, ammo ularning o'ziga xos tartiboti va usullari mavjud.

3. Hisob-kitob tizimi: Yevropa mamlakatlarida hisob-kitob tizimi xavfsizlik, masofaviy turarjoyingizdan qat'iy nazar, hisob-kitob transparensiyasi va hisob-kitob kafolati ko'rsatilishi lozim. O'zbekistonda ham shu tartibda hisob-kitob tizimi mavjud, ammo uni rivojlantirish uchun xizmatlar berilmoqda.

4. Soliqni to'lash tizimi: Yevropa mamlakatlarida soliqni to'lash jarayonlari avtomatlashtirilgan va yuqori darajada o'rganilgan. O'zbekistonda ham soliq to'lash jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, lekin bu sohada yana rivojlanishlar kerak.

5. Soliq darajalari va qo'shimcha to'lovlar: Yevropa mamlakatlarida soliq darajalari odatda turli darajalarda va kategoriyalarda tuziladi. Shuningdek, qo'shimcha to'lovlearning ko'pligi mavjud, masalan, mulk soliqi, daromad soliqi, va boshqalar. O'zbekistonda ham soliq darajalari va qo'shimcha to'lovlearning ko'pligi mavjud, lekin ularning tartiboti va shakllari yuridik vaqt orqali o'zgarishi mumkin.


6. Soliq to'lovlarining yordamchi tizimi: Yevropa mamlakatlarida soliq to'lovlarini amalga oshirish uchun onlayn platformalar va xizmatlar mavjud, shu bilan birgalikda avtomatik to'lov tizimlari ham rivojlantirilgan. O'zbekistonda ham soliq to'lovlarini amalga oshirish uchun avtomatlashtirilgan platformalar mavjud, lekin ularning rivojlanishi va yetarlicha ko'p tadbirlar olib borishi lozim.

7. Soliq inspeksiyalari va tartibot organlari: Yevropa mamlakatlarida soliq inspeksiyalari va tartibot organlari o'zgaruvchan, mustaqil va effektiv bo'lishi lozim. O'zbekistonda ham soliq inspeksiyalari va tartibot organlari mavjud, lekin ularning ishlari va samaradorligi ko'proq rivojlanishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rjanib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot davlat iqtisodiyotini boshqarishda bosh rol o'ynaydi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik vazifalarini bajaradi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rjanib chiqib, uni amaliyatga tatbiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

Soliq munosabatlari davlatning bajaradigan vazifa va faoliyati amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki, har qanday ustqurtma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi. O'z navbatida, bazisning fundamental asosini yaratuvchi omillar, ayni paytda uning qismatini ham belgilaydi. Mazkur ta'kiddan kelib chiqib, ana shu bazisning oqilona asosini shakllantiruvchi soliq hamda uning tizimini jamiyat tarixi taraqqiyotida tutgan rolini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, o'ziga xos dastak ekanligini ilg'ash qiyin emas.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda Soliq islohotlari davriy o'tkazib turiladi. Muayyan soliq turini joriy etish yoki bekor qilish, ayrim turdag'i soliqlar ulushini oshirish yoki kamaytirish.



Soliq daromadlarini qayta taqsimlash va boshqa ko‘rinishlarda amalga oshiriladi. Britaniyada joylashgan Taraqqiyot tadqiqotlar instituti “Rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq bazasini kengaytirish” nomli tahlilnoma chiqardi. Unda hukumatlar soliq undirish sistemasini takomillashtirishi, donorlar esa bu jarayonda yordam ko‘rsatishi zarurligi aytildi. Tahlilnoma muallifi, Soliq va taraqqiyot xalqaro markazi rahbari Mik Mur so‘zlariga ko‘ra, daromadi past mamlakatlar bugungi kunda o‘zi uchun mablag’ to’plashga qodir va hukumatlar buni sekin-asta tushunib yetayapti.

“O’nlab yillar mobaynida xorijdan ko‘mak olish siyosati olib borildi. Bunday “katta yordam” davri tugayotgani ko‘pchilikka ma’lum”, - deydi suhbatdosh.

Albatta, favqulodda holatlar va gumanitar maqsadda donorlar pul ajratishda davom etadi, deydi professor Mur. Biroq kambag’al mamlakatlar o‘zi mustaqil ravishda mablag’ to’plashdan, chet el ko‘magiga tayanmaslikdan manfaatdor.

Kam daromadli deb belgilangan davlatlar ham o‘z soliq bazasiga ega, ammo odatda soliq siyosati to’g’ri yo’lga qo‘yilmagan, deya tushuntiradi hisobot muallifi. Samarali tizim kambag’al oilalarga ko‘proq soliq solishni ham anglatmaydi.

“Gap shundaki, soliqdan qochish va noqonuniy daromad olish keng tarqalgan amaliyotlardan. Bunday davlatlar iqtisodiyotida hisob-kitob qilinmagan operatsiyalar ko‘p bo’ladi. Shifokorlar, huquqshunoslar, konsultant, tish doktorlari, artist va arxitektorlar, turli soha vakillari xizmatlari uchun naqd pul olib, daromaddan soliq to’lamaydi. Ko‘plarning mol-mulki bor, mulkka solinadigan soliqlar esa past”, - deydi professor Mur.

Uning aytishicha, eng qashshoq jamiyatlar ham AQSh yoki Britaniyada bo’lgani kabi o‘z soliq tizimlariga ega. Faqat undan samarali foydalanishni, mavjud mexanizmlarni ishga solishni bilish kerak.


Muammo ortidagi sabablardan biri – soliq bobida malakali kadrlarning yetishmasligidir, chunki hukumatga kerakli mutaxassislar xususiy sektordan o‘ziga ish topadi. Ikkinchisi sabab – soliq siyosatiga e’tiborsizlik. Shuningdek, hukumatlar xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yaratishga shoshiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bunday xatolarga yo’l qo‘ymasligi uchun xorijiy donorlarning yordami zarur. Muayyan davlatga borib, uni qiling, buni qiling deyish emas, balki o’sha jamiyatning o‘zidagi mutaxassislarga muammolarni yechishda yordam berishimiz kerak, deydi professor Mur.

Soliq siyosati yaxshilansa, noqonuniy moliyaviy oqimlarni ham to’xtatish mumkin.

“Kambag’al mamlakatlardan xorijga olib chiqilayotgan pullar hajmi juda katta. Ular banklar orqali o’tkaziladi. Bu korrupsiya orqali qo’lga kiritilgan daromad. Ushbu mablag’ badavlat mamlakatlar, soliq to’lanmaydigan o’lkalarga jo’natiladi. Lekin bu pullarning hammasi ham hukumat soliq solishi mumkin bo’lgan pullar emas. Demak, kapitalning noqonuniy yo’llar bilan mamlakatdan olib chiqilishiga chek qo‘yish natijasida davlat g’aznasiga tushadigan soliqlar oshadi deyish to’g’ri emas”, - deydi suhbatdosh.

So’nggi yillarda soliq siyosatini ancha kuchaytirgan mamlakatlar qatorida Keniya, Mozambik va Tanzaniyani sanab o’tish mumkin.



Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Graude P., Polan M. Is Inflation Always and Everywhere a Monetary Phenomenon? Discussion Paper. №2841 CEPR. 2001. June. – P. 26-29.
2. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation // Working Paper. 65. IMF. – P. 63 - 67.
3. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.
4. Пивоварова М.А. Международная научно-практическая конференция: “Инфляция и экономический рост: теория и практика” // Деньги и кредит. – Москва, 2006. - №7. – С. 60

Foydalanilgan saytlar:

1. <https://lex.uz/docs/-4674902?ONDATE=07.06.2022>
2. <https://www.soliq.uz/page/xalqaro-hamkorlik>
3. <https://www.soliqvahayot.uz/>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq>